Bank kapitali barqarorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati.....	1010
Vasiyev Alisher Samiyevich	
O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotining institutsiunal tahlili	1014
Hakimjon Hakimov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1019
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish	1024
Ilyasova Barno Axmadowna , mustaqil tadqiqotchi	
Xitoy sug'urta bozorida onlayn sug'urta xizmatlar tahlili	1028
Qarshihev Daniyar Eshpulatovich , iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)	
Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari	1033
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi faoliyatini samaradorligini matematik simulyatsion modellashtirish.....	1041
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
O'zbekistonda akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash: 2022-yilgi AFI tadqiqotidan olingan tushunchalar va ilmiy istiqbollar	1046
Yuldashev Feruz Isroil o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalari	1052
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori	
Tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish yo'llari	1058
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi va uning amal qilish mexanizmi ...	1064
Muxtorova Umida Karimovna , katta o'qituvchi	
Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы	1070
Нуриллаев Рахмат Ярашевич , к.с.х.н., доцент	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции	1075
Бабаева Гузаль Яшиновна , доцент кафедры	
Oilaviy biznes bo'yicha jahon amaliyoti tahlili	1081
Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li	
Milliy iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining tutgan o'rni.....	1086
Jo'rayev Dilshod Maxmudjonovich	
To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi	1091
Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi iqtisodiy savdoning ahamiyati.....	1095
Ibodullayev Abror Axrorovich , dotsent, Gulov Ma'ruf G'ayrat o'g'li , Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li , talabalar	
The Impact of Corporate Monopolies on Market Competition and Economic Health.....	1100
Nimatullayev Khondamir Tursunboy ugli , Avazov Ilhom Ravshanovich	




Проблемы и перспективы зеленой экономики в Республике Узбекистан.....	1104
Тураева Адиба Икрамовна , старший преподаватель кафедры	
Quantifying the Return on Investment for Businesses in Adopting Green Construction Practices	1109
Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova , DSc	
Ishlab chiqarish tafovutining markaziy bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri.....	1117
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich , PhD	
Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish.....	1122
Kalandarova Nargiza Narimanovna , PhD	
Aksiyadorlik jamiyatlarining fond birjalarida listingdan o'tish tartibi va mamlakatimiz amaliyoti.....	1128
Narimonov Sayfullaxon Sunnatillo o'g'li , tayanch doktorant	
Hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlari	1135
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Kichik biznes uchun muqobil moliyalashtirish manbalari va vositalari: xorijiy tajriba.....	1142
Xolikov Sarvar Xayitbayevich	
Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va sug'urta portfeli muvozanatida anderrayting xizmati	1147
Sayfullo Mirzoyev , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonning elektron tijorat strategiyasi: xorijiy bozorlarda raqobat qilishning asosiy yo'llari.....	1153
Baymuradov Shoxrux Maximovich , PhD	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda marketingning roli.....	1158
Eshmirzayev Faruddin Ilxomjonovich , tayanch doktorant, Salimova Zaxro Sobirjon qizi , magistr	
Barqaror rivojlanish konsepsiyasini tadqiq qilish yondashuvlari tahlili.....	1164
Xasanova Nasiba Nazar qizi , tадqiqotchi	
Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishda marketing tadqiqotlari metodologiyasi	1170
Meyliyeva Dilnoza Boboniyoq qizi	
Концепция маркетинговой стратегии развития региона и ее теоретические основы.....	1176
Холмуротова Диёрахон Ибрагимовна	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga xalqaro kapital bozoridan molivaviy resurslar jalb qilish amaliyotining tahlili	1179
Muydinov Shohruh Najmaddin o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda o'zini o'zi band qilishda xorijiy tajribalar va ulardan mamlakatimizda foydalanish masalalari...	1186
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li , tayanch doktorant	
Aholini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish.....	1191
Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich	



TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNING ROLI

**Eshmirzayev Faruddin Ilhomjonovich**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiyot fakulteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi tayanch doktoranti, "Alfraganus University" nodavlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti o'qituvchisi

**Salimova Zaxro Sobirjon qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot fakulteti "Fundamental iqtisodiyot" kafedrasi magistri

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida marketing faoliyatini tashkil etish va rivojlanish xususiyatlari o'rganilib, uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: biznes, tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, marketing, marketing strategiyasi, marketing faoliyati, marketing rejasi, innovatsion marketing.

Abstract: The article investigates the features of the marketing activities in small business and private entrepreneurship organization, develops scientifically based proposals and practical recommendations for its perfection.

Key words: business, entrepreneurship, small business, private entrepreneurship, marketing, marketing strategy. Marketing activity, marketing plan, innovative marketing.

Аннотация: В статье на основе изучения особенностей организации маркетинговой деятельности на предприятиях малого бизнеса и частного предпринимательства разработаны научно обоснованные предложения и практические рекомендации по его совершенствование.

Ключевые слова: бизнес, предпринимательство, малый бизнес, частное предпринимательство, маркетинг, маркетинговая стратегия, маркетинговая деятельность, маркетинговый план, инновационный маркетинг.

KIRISH

So'ngi yillarda yurtimiz Yangi O'zbekistonning iqtisodiyoti yuksalib, rivojlanib, taraqqiy etib borar ekan, albatta, bu rivojlanish o'z-o'zidan sodir bo'lmayotganligini, balki buning uchun iqtisodiy o'sish va rivojlanishni taminlab beruvchi asosiy omil tadbirkorlik faoliyati yurtimizda keng darajada qo'llab quvvatlanayotgani, faol tadbirkorlar va biznes egalarining iqtisodiy faoliyatini yanada rag'batlantirish va qo'llab quvvatlashga shaxsan yurboshimizning o'zlari e'tibor qaratayotganliklarini aytib o'tishimiz lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisiga Murojaatnomasida "Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhim, yangi ish o'rirlari yaratib, nafaqat



o'zini va oиласини боqадиган, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galidagi vazifamiz bo'lishi shart. Kerak bo'lsa. Xorijdagi yetakchi kompaniya va tashkilotlarda tajriba orttirishi, o'zaro manfaatli hamkorlik qilishi uchun ularga har tomonlama imkoniyat tug'dirib berishimiz lozim"¹, deb ta'kidlaganlar.

"2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da 29-maqсада sifatida Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpm ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yegnazish belgilangan². Faol tadbirkorlik va bisnes muxitini shakllantirish va rivojlanishda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida marketing faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik korxonasida marketing faoliyatini tashkil etishga qaratilgan nazariy izlanishlar olib borgan iqtisodchi olimlar orasida I. Ansoff, B. Berman, G. L. Bagiyev, P. S. Zav'yayev, A. N. Romanov, V. Evans, J. J. Lamben, Ye. P. Golubkov, F. Kotler kabi buyuk iqtisodchi-olimlar alohida urin egallaydilar. Shuningdek, mamlakatimizda marketing ilmining rivojlanishi masalalari H. P. Abulqosimov, A. Bekmurodov, A. V. Vaxabov, M. Nasritdinova,

S. Saidmurodov, N. Q. Yuldashev, J. Jalolov, M. Qosimova, Sh. J. Ergashxodjayeva, A. Soliyev, M. Yusupov va boshqa ko'pgina iqtisodchi-olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ularning ishlarini o'rganish asosida hozirgi raqobat kurashi keskinlashgan davrga tadbirkorlik kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida marketing faoliyatini amaliy hayotga tatbiq etish masalalarini tahlil qilish zarurati mazkur maqola mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Shuningdek, yuqorida keltirilgan tadqiqotlar natijasiga suyangan xolda, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi uchinchi bo'limida rejalashtirilgan Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlanish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash doirasida amalga oshirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini rivojlanishini nazarda tutib, ularda marketing faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish nafaqat katta ilmiy examiyatga, balki metodik yondashuvlarni takomillashtirish nuqtayi nazardan ham katta axamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy marketing konsepsiyalardan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida marketing faoliyatini tashkil etish, tahlil etish va uning uslublarini joriy etish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ishning predmeti kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida marketingni takjillashtirish bo'yicha tashkiliy iqtisodiy masalalar tadqiqotning predmeti bo'lib hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot metodologiyasi sifatida mantiqiy va qiyosiy tahlil, nazariy mushohada va abstraksiya, statistik solishtirish, guruhlashtirish, grafik tasvirlash kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA ASOSIY NATIJALAR

Ta'kidlash joizki, ko'pgina xorijiy adabiyotlarda "tadbirkorlik" va "biznes" tushunchalari sinonim tushunchalar sifatida talqin qilinib, ular bir-birlaridan farq qilinmaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida "Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonun hujjalari muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir"³, – deb ta'rif berilgan, bundan ko'rindaniki, biznes va tadbirkorlik bir xil negiz, shart-sharoit, tamoyillarga ega bo'lganligi uchun xam amaliyotda biznes va tadbirkorlik yoki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kabi qo'sh nomlar bilan atalib, bir xil ma'noda ishlatiladi. Biznes foyda, daromad, naf olishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat yuzasidan kishilar o'rtasida yuz beradigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuasidir. Tadbirkorlik biznesning muhim tarkibiy qismi, yuz berish shakllaridan biri bo'lib, tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish orqali foyda, daromad olishga qaratilgan faoliyatdir⁴, deb berilgan ta'rifga qo'shilamiz (1-rasm).

- 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 2017-yil 23-dekabr.
- 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yakgi O'zbekistonning taraqqiyot strategiya to'g'risida"gi PF-60-son Farmonining 1-loviasi
- 3 O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari tug'risida"gi Qonuni (yangi tahriri), 2012-yil 2-may.
- 4 Abulqosimov H.P. Shakllanayotgan bozor iqtisodiyotda inson omili va uni faollashtirish yo'llari. Monografiya. –T.:TMInashri, 2005, –Zb-bet; Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilishi va faollashuvi. Monografiya. –T.: "Akademika" 200b. –41-bet.

1-rasm: Faoliyat shakliga ko'ra biznes shakllari⁵

Biznes va tadbirkorlik rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- tovar-pul munosabatlarning va bozor iqtisodiyoti zamonaviy modellariking rivojlanib borishi;
- xilma-xil mulk turlari va shakllarining rivojlanib borishi hamda xususiy mulk miqyoslarining kengayib, ustuvorligining ta'minlanishi;
- xo'jalik subyektlarining iqtisodiy jihatdan mustaqilligi va faoliyat erkinligining oshib borishi;
- davlat tomonidan mamlakatda qulay ishbilarmonlik, biznes yuritish uchun maqbul sharoit va muhitining yaratib berilishi, davlatning tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashining kuchayib borishi⁶.

Tadbirkorlik faoliyatida qaror qabul qilish va uni ishlab chiqishda tadbirkorlikning samarali vositasi hamda asoslari bo'lib marketing hisoblanadi hamda tadbirkorlik faoliyatini boshqarish tizimida, uni tashkil etishda, rejalashtirish va nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Marketing mazkni za terminologiyam yangilanib boradi lekin ular boshdan ayrboshlash jarayoni, tovar-pul munosabatlari paydo bo'lishi, sotish shakllarini rivojlanishi hamda iste'molchilarini tovar va xizmatlar bilan o'zaro harakati bilan bog'lanadi.

Marketingda eng asosiy jarayon ikki yoqlama va bir-birini to'ldiruvchidir. Bir tomonдан bu bozorni, talab, did va ehtiyojlarni har tomonlama va chuqur o'rganish, ishlab chiqarishni talablarga yo'naltirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning manzilliliqi bo'lsa, ikkinchi tomonidan esa bozorga va undagi mayjud talablarga, iste'molchilarining afzal ko'rishlari va ehtiyojlarning shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi⁷.

Eng keng tarqalgan marketing ta'rifi, u Amerika marketing assotsiatsiya tomonidan berilgan bo'lib, uning mazmuni quyidagichadir, ya'ni «Marketing shunday jarayondan iboratki, uning yordamida o'ylangan g'oya rejalashtiriladi va amalga oshiriladi, narxlar tashkil etiladi, g'oyalalar, tovarlar va xizmat ko'rsatishlar harakati va sotishni, ayrim shaxslar va tashkilotlarni maqsadlari ayrboshlash yordamida qondiriladi».

Jan-Jak Lamben marketinga shunday ta'rif beradi: "Marketing tashkilotlar va kishilarni xohish va ehtiyojini tovarlar va xizmatlarni erkin raqobatlari ayrboshlashni ta'minlash yo'li orqali qondirishga yo'naltirilgan ijtimoiy jarayondir", "Marketing – bu bir vaqtning o'zida biznes falsafasi va faol jarayondir"⁸.

Biz H. P. Abulqosimov va M. H. Abulqosimovlarning marketingga bergen ta'riflariga qo'shilamiz. Ularning fikricha "marketing – bu korxonaning yuqori foyda olish maqsadida xaridorlarning real so'rovleri va bozorni kompleks o'rganish asosida xizmat ko'rsatish, tovar ishlab chiqarish va sotish faoliyatini tashkil etish tizimidir. Bundan marketingning asosiy tamoyili – ishlab chiqarishning yakuniy natijalari iste'molchilar talab va takliflariga yo'naltirilishi kelib chiqadi. Ushbu kompleks vazifani baja-rish uchun marketing tahliliy, ishlab chiqarish va sotuv funksiyalarini bajarishi lozim"⁹.

5 tutorstips.com. <https://tutorstips.com/classification-of-business-activities-examples>

6 Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilish/. na faollashuvi. Monografiya, - T.: "Akademiya" 2006.-1-1-betlar: Abulqosimov H.P., Qulmatov . O'zbekistonda kichik biznes sohasida oilze// tadbirkorlikning o'rni va uni rivojlanтирish yo'llari. - T.: "Universitet", 2015.-11-bet.

7 Дурович М. Маркетинг. М.: Экономика, 2010. -018.

8 Ламбен Ж-Ж. Стратегический маркетинг. - С-Пб.: Наука, 2009, - С. 17.

9 Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. Iqtisodiyotga oid atama va tushunchalarning izohli lug'ati. - T.: "ABU MATBUOT-KONSALT",



Marketing tahlilini ishlab chiqish odatda quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- ichki va tashqi muhit strate gik tahlilini amalga oshirish;
- marketing faoliyati va korxonaning maqsadlarini aniqlash;
- marketing strategiyasini aniqlash;
- rejalashtirilayotgan natijalarga erishish maqsadida marketing faoliyati elementlarini tanlash¹⁰.

Marketingning quyidagi konsepsiyalarini asoslandi:

- ishlab chiqarish konsepsiysi;
- tovar konsepsiysi;
- sotish konsepsiysi;
- an'anaviy marketing konsepsiysi;
- ijtimoiy-axloqiy marketing konsepsiysi;
- o'zaro aloqaviy marketing konsepsiysi.

Marketing tadqiqotlari umumiy tarzda qilingan bozor raqobatlari qoidalariiga, shuningdek me'yorga muvofiq, umumiy, ilmiy usul- larga asoslangan holda olib borilishi zarur. Ilmiy, tahlil-axborotli usullardan keng foydalangan tadqiqotchilar bozorni, raqobatchilarni, iste'molchilarni, bahoni, shuningdek korxonaning ichki quvvatini o'rganadilar. Mahalliy vosita va dala tadqiqotlari, shuningdek turli manbalardan (ichki, tashqi, shaxsiy va pullik) olingan ma'lumotlar to'plami marketing tadqiqotlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Marketing faoliyatida bashorat qilish usullari keng qo'llaniladi. Ulardan marketing tizimidagi barcha subyektlar yuksalishi konsepsiya- sini tahlil qilish va qayta ishlash uchun foydalaniladi. Fransuz olimi Lamben Jan Jak bashorat qilish usullarini ikki mezon bo'yicha tasniflaydi. Uning fikricha, bu mezonlar bashoratlzsh jarayonining subyektivlikdan erkinlik darajasi va ushbu jarayonning ko'proq yoki kamroq darajada tahliliy bo'lismida o'z ifodasini topadi. Ushbu o'lchashlarning qutblarida subyektiv va obyektiv usullar hamda sabab- oqibat usullari yotadi. Marketing faoliyatida bashorat qilish usullari klassifikatsiyasining qo'llanilishini va ularni amaliyotda qo'llash samaradorligini 1-jadvalda ko'rish mumkin

1-jadval: Bashorat usullarini amaliyotda qo'llash samaradorligi¹¹

Bashorat qilish usullari	Qo'llanilishi, tashkilotlar sonidan % da, (p = 334)	Ishonchlik darajasi	Qo'llanilish chastotasi
Miqdoriy usullari:			
Ekstrapolyatsiya usuli	73,7	O'rtacha	Tez-tez
O'rtacha sirpanish usuli	67,7	O'rtacha	Tez-tez
Regression tahlil	35,9	Yuqori	Ba'zan
Eksponensial to'g'rilash	32,9	O'rtacha	Ba'zan
Modellashtirish	15,9	Past	Kamdan kam
«Chiqim-xarajat» modeli	14,4	O'rtacha	Kamdan kam
Markova zanjiri	4,2	Past	Kamdan kam
Sifat usullari:			
Xalqaro bo'limdagи hamkorlarni baholash	87,7	O'rtacha	Tez-tez
Tijoratchi va texnik boshqaruvni baholash	85,9	Yuqori	Tez-tez
Iste'molchilar orasida so'rov o'tkazish	81,9	O'rtacha	Tez-tez
Tovarni sinovdan o'tkazish	50,0	O'rtacha	Ba'zan
O'xshashlik usuli	46,7	Yuqori	Tez-tez
Bozorni sinovdan o'tkazish natijalari	37,7	O'rtacha	Ba'zan
Ekspert baholashning "Delfi" metodi	15,9	O'rtacha	Kamdan kam

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, korxonalarda marketing tahlilini amaliyotda qo'llash samaradorligi keltirib o'tilganligini ko'rish mumkin. Ekspert baholash usulida matematik formallashtirish mumkin bo'lmaganda, obyekt va muammolarni tahlil qilishda foydalaniladi. Regressnoy tahlil o'rganilayotgan tasodifiy me'yorni va o'rganilayotgan miqdoriy o'zaro munosabatlar o'tasidagi bog'lanishni izlash uchun qo'llaniladi. Ssenariy usuli – turli sharoitlarda vaqt o'tishi bilan hodisa yoki jarayonni mantiqan aniqlashga asoslanadi¹².

2017. - 327- bet.


10 Qosimova M.S., Ergashxo'jayeva Sh. Marketing. – TDIU, 2007. –10-bet

11 Панкрухин А.М. Маркетинг. Учебник. – М.: "Омера-Л", 2009. –С. 513.

12 Abulqosimov H.P. Korxonaning xalqaro marketing faoliyati. –Т.: Akademika, 2002. –81 b



Har bir kichik biznes va tadbirkorlik subyekti o'zining marketing strategiyasini va rejasini, I'ni dasturini tuzib olishi lozim. Marketing strategiyasi – bozorni kengaytirish va yuqori foyda olish maqsadida marketing faoliyatini tashkil etishning samarali usullarini aniqlash hisoblanadi. Marketing strategiyasi korxonaning bosh maqsadiga erishishning vositalari va yo'llarini ifodalovchi umumiyligini rejadir. Shu boisdan marketing faoliyatini amalga oshirish grafigini, uning zarur resurs, vositalarini umumiy tarzda belgilab beradi. Strategiyani ishlab chiqish uchun yuqorida bayon qilinganidek. bozorni o'rganishga qaratilgan marketing tadqiqotlari amalga oshiriyabdi, korxona imkoniyatlari tahlil qilinadi, marketing maqsadlari va vazifalarini aniqlanadi. So'ngra asosiy maqsaddan kelib chiqib, marketing maqsadlari va strategiyasi ishlab chiqiladi (2-rasm).



2-rasm: Korxonaning maqsadini amalga oshirish bosqichlari¹³

Bosh maqsad asosida unga erishish yo'llari maz-munini ifodalovchi asosiy va aniq vazifalar belgilanishi lozim bo'ladi .

Marketing rejasi (dasturi) – marketing faoliyati turlari va uning yo'nalishini aniqlash. Odatda, marketing rejasi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- 1) korxona maqsadining ta'rifi;
- 2) bozor faoliyati natijalarining tahlili;
- 3) firma korxona faoliyatininghar bir bozor bo'yicha marketing strategiyasining ta'rifi;
- 4) marketing tadbirlarini amalga oshirish usullari;
- 5) marketing rejasi bajarilishini nazorat qilish tartibi.

Korxona marketing faoliyatini takomillashtirish uchun tovar,narx, sotish va kommunikatsiya siyosatlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Korxonaning tovar siyosati quyidagi tamoyillar mavjud:

- nimani ishlab chiqarsak, shuni sotamiz;
- nimani sotsak, shuni ishlab chiqaramiz;
- iste'molchilar talabiga muvofiq nimani ishlab chiqarsak, shuni takomillashtiramiz, modi-fikatsiyalaymiz.

Kichik korxonaning marketing strategiyasini belgilab olishda innovatsion mahsulot va xizmat turini ishlab chiqish hamda joriy etishda quyidagilarni amalga oshirish rejalashtiriladi:

- I-o'ta muhim yangiliklarni yaratish;
- II-modifikatsiyalangan yangi ilmiy hajmlri mahsulotlarga asoslangan yangi ilmiy-amaliy g'oyalarni joriy etish;
- III-ilmiy-amaliy toyalarni mahsulot va texnologiyalarga moslashtirish;
- IV-modernizatsiyalangan innovatsiyalarni joriy etish orqali amaldagi mahsulot yoki texnologiyani takomillashtirish;
- V-seriyali ishlab chiqarish maqsadida tayyor innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirish.

Innovatsion marketing bozorga yangi mahsulot, xizmat yoki texnologiyami joriy qilishga tayyorlashni amalga oshiradi. U kichik korxonadagi innovatsion mahsulotni joriy qilishdan maksimal samara olishni o'z vaqtida va to'g'ri baholash imkonini beruvchi usul va dastaklar majmuasi sifatida foydalilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik korxona o'z imidjini yaratishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi kerak:

- jamoatchilik fikri muntazam ravishda o'zgarib turadi, shu bois, faqat imidjni shakllantirib to'xtab qolish kerak emas, unga doim o'zgartirishlar kiritib borish zarur;

13 Abulqosimov H.P. Korxonaning xalqaro marketing faoliyati. –T.: Akademika, 2002. –114 bet.



- jamoatchilik fikri kelgusida qay yo'nalishda bo'lishini hayotiy real hodisalar belgilab beradi;
- yagona va har doim bir xil fikrda bo'lgan jamoat mavjud emas. Jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish jamoatning ma'lum guruhiga qaratilgan bo'lishi kerak;
- jamoatchilik fikrini quruq ran emas, balki hodisalar o'zgartiradi; jamoatchilik manfaati jamoatchilik fikrini belgilaydi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida marketing faoliyatini tashkil etish va uni takomillashtirish uchun quyidagi asosiy ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida ishlab chikarilayotgan tovarlar "Brend"ini oshirish chora-tadbirlarini marketing strategiyalari, ayniqsa milliy reklama agentliklarini rivojlantirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'z mahsulotlarini sotishda veb-saytlarni rivojlantirish;
- tadbirkorlarni yarmarkalar, tanlovlar, zamonaviy yangi texnologiyalar ko'rgazmalarida qatnashishni ta'minlash;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining korxonalarini modernizatsiya qilishga, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilishga ko'maklashish.

Foydalanilgan adabiyotlar ruxyatি:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 2017-yil 23-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmonining 1-ilovasi.
3. O'zbekistan Ryospublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari tug'risida»gi Qonuni (yangi tahriri), 2012-yil 2-may.
4. Abulqosimov H.P. "Shakllanayotgan bozor iqtisodiyotida inson omili va uni faollashtirish yo'llari". Monografiya. –T.: TMI nashri, 2005, 36-bet. Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilishi va faollashuvi. Monografiya. –T.: "Akademiya" 200b. –41-bet.
5. Tutorstips.com. internet sayti. <https://tutorstips.com/classification-of-business-activities-examples/>.
6. Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilish faollashuvi. Monografiya, –T.: "Akademiya" 2006. –11-12-betlar: Abulqosimov H.P., Qulmatov O'zbekistonda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o'mni va uni rivojlantirish yo'llari. –T.: "Universitet", 2015.-11-bet.
7. Дурович М. Маркетинг. –М.: Экономика, 2010. –С.118.
8. Ламбен Ж-Ж. Стратегический маркетинг. – С-Пб.: Наука, 2009, –С. 17.
9. Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. Iqtisodiyotga oid atama va tushunchalarning izohli lug'ati. –T.: "ABU MAT-BUOT-KONSALT", 2017. – 327- bet.
10. Qosimova M.S., Ergashxo'jayeva Sh. Marketing. –TDIU, 2007. –10-bet.
11. Pankruxin A.M. Marketing. Uchebnik. –M.: «Omega-L», 2009. – S. 513.
12. Abulqosimov H.P. Korxonaning xalqaro marketing faoliyati. – T.: Akademiya, 2002. –81-b.
13. Abulqosimov H.P. Korxonaning xalqaro marketing faoliyati. – T.: Akademiya, 2002. –114 bet.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatinining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-slonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

